

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida davolash-sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-335-son qarori asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi Olimlar Kengashining 2025-yil_19_martdagি №_7 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2027 yil iyulgacha.

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Preventiv tibbiyot –valeologiya asoslari
O'quv dastur nomi	HULQ ATVORNI, TIBBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA VALEOLOGIYANING ROLI"
O'qish turi	Mavzuiy malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	N.N.Fayzieva, Irgashev Sh.B., Mamadaliyeva O'.I., Tulyaganova K.A., Alimova D.I.
Tsiklning umumiy soati	144 kredit

Tsiklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar

				
Dotsent, t.f.n., Fayzieva Nozima Nurillaevna	Irgashev Sh.B., t.f.d., professor	Mamadaliyeva O'.I., assistant	Tulyaganova K.A. assistant	Alimova D.I. assistant

Maqsad	Valeologiya fani haqida tibbiyot xodimlarining tushunchasini yangilanib, mustahkamlanadi va tizimlanadi.Tibbiyot xodimlarning valeologiya fani asosi, uning maqsadi va vazifalari bilan kengroq tanishtirish va aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ayniqsa to'g'ri ovqatlanish, nutritsiologiyabo'yicha qo'shimcha kasbiy kompetentsiyalarini hosil qilish natijasida, sog'lom turmushtarzini shakllantirish, salomatlikni muhofaza qilish, mustaxkamlash va xavf omillari kabi muammolarni echimini topishda zamonaviy nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar yangilanadi.
Tsiklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingen	internatura, klinik ordinatura, magistratura yoki boshlang'ich ixtisoslashtirishda mutaxasislik olganligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan tibbiyot xodimlari. O'quv dastur Sog'liqni saqlash tizimining barcha býg'in muassasalarida faoliyat olib boruvchi rahbar xodimlar, shifokorlar va hamshiralari Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlar, sanatoriya-profilaktoriya va boshqa tibbiy Davlat va nodavlat muassasalari tibbiy xodimlari uchun mo'ljalangan.
Tsikl vazifalari	Umumiy valeologiya va uning rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha xosil qilish; Salomatlik turlari, salomatlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tushunchasini mukammallashtirish ;

	<p>Hayot sifati, salomatlik sifati haqida tushuncha va uni baholash mezonlarini takomillashtirish;</p> <p>Aholining tibbiy madaniyatini shakllantirishning valeologik tamoyillarini amalga oshirish;</p> <p>Tibbiy etika va deontologiya masalalalari, shaxslararo muloqot haqida tushuncha;</p> <p>Nutq madaniyating tibbiy xodim faoliyatidagi o'rni va uni rivojlantirish masalalari;</p> <p>Donozologik tashxis va valeogenez tushunchalarini ochib berish;</p> <p>Sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi valeologik printsiplar va uni hayotga tadbiq qilish yo'llari;</p> <p>Valeologiya asoslari, nutritsiologiya yo'naliishlari;</p> <p>Xususiy valeologiya printsiplari va metodlarini o'rgatish;</p> <p>Individual, guruhlar va populyatsion darajada organizmning rezervlarini inobatga olgan holda, aholi salomatlik darajasini baholash va uni xulq-atvoriga ta'sir etishning aniq mexanizmlari o'zlashtirish;</p> <p>“To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi” xonalarini tashkil etish va ularda ish olib borish xususiyatlarini o'rgatish;</p> <p>Salomatlik miqdorini baholash va amaliyotga individual sog'lomlashtirish dasturlarini tadbiq etish yo'llarini qo'llay olish;</p> <p>Tibbiyot xodimlarida hayotiy va ilmiy tassavvurni shakillantirishda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni insonparvarlik mohiyatini ko'rsatish asosida, tibbiyot xodimlarining qalbi va ongiga singdirish.</p>
Tsikl tarkibi	<p>1 MODUL: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi - Sog'liqni saqlash tizimini islohatlari, me'yoriy hujjatlar.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5590; PQ-4063; PQ-4666 sonli qaror va farmonlari taxlili.O'zbekiston Respublikasi SSVning №214-sonli buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagи “Korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5177-son Qarori</p> <p>2 MODUL: Umumiy valeologiya asoslari.</p> <p>Preventiv tibbiyot asoslari. Tibbiy madaniyat Abu Ali ibn Sino merosida. Tibbiy xodim etika va deontologiyasi.Salomatlik va unga ta'sir etuvchi omillar. Xulq –atvor omillarining salomatlikdagi o'rni.Donozologik tashxis. Adaptatsion potentsialxaqida tushuncha.Salomatlik xonasi xaqida tushuncha, uning maqsadi, vazifalari.Salomatlik xonasi ni tashkil etish. Ratsional ovqatlanishning valeologik tamoyillari. Xulq –atvor omillarining ratsional ovqatlanishga ta'siri. Jismoniy faoliyk sog'lom xayot tarzini shakllantirishning asosiy omillaridan biri. Xulq –atvor omillarining jismoniy faoliyka ta'siri. Psixo – emotsiyal holatning valeologik ahamiyati va korrektysiysi. Antistress dastur. Emotsional zo'riqish sindromi. Xulq –atvor omillarining psixo – emotsiyal xolatga ta'siri. Psixo – emotsiyal holatni Rider usuli bilan baholash. Reproduktiv va seksual salomatlik va ularda xulq –atvor omillarining o'rni. Aholi orasida tibbiy patronajning ahamiyati. Organizm rezervlarini baxolash.Adaptatsion potentsiali bo'yicha salomatlikni</p>

tashxislash.(R.M.Baevskiy). Salomatlik miqdori (indeksi) va sog'lomlashtirish tibbiyotiga axamiyati. Salomatlik indeksini aniqlash. Natijalarni tahlil qilish va individual sog'lomlashtirish dasturlarini tuzish. Insonni biologik yoshini aniqlash usullari.

SCORE jadvali buyicha YUQTT ning asoratlarini xavfini aniklash.

3 MODUL: Maqsadli guruhlarning valeologik xususiyatlari.

Maqsadli guruhlar – populyatsion yondashuvlarning asosiy mezoni.

“Yosh oila” maksadli guruxida salomatlikni ta'minlashda valeologik yondoshuvlar. Xulq atvor omillarining yosh oilasalomatligida o'rni.

“Homilador ayol va go'dak bola” maqsadli guruxida salomatlikni ta'minlashda valeologik yondoshuvlar. Xulq atvor omillarining homilador ayol va go'dak bola salomatligiga ta'siri.

“Bolalar va o'smirlar” maqsadli guruxida sog'lom xayot tarzini shakllantirishning asosiy valeologik yunalishlari.Xulq atvor omillarining bolalar va o'smirlar salomatligiga ta'siri.

“Yoshlar” maqsadli guruxidasog'lom xayot tarzini shakllantirishning asosiy valeologik yunalishlari. Xulq atvor omillarining yoshlar salomatligiga ta'siri.

“Etuk (o'rtal) yosh” maqsadli guruxida sog'lom xayot tarzini shakllantirishning asosiy yunalishlari.Xulq atvor omillarining etuk (o'rtal) yoshlilar salomatligida o'rni.

“Keksalar (kariyalar)” maqsadli guruxida sog'lom xayot tarzini shakllantirishni zamonaviy valeologik yondashuvlari.Xulq atvor omillarining eksalar (qariyalar) salomatligida o'rni.

4 MODUL: Xulq- atvor madaniyati .

Axloqiy omillar profilaktikasi, tushunchalari va valeologik yondoshuvlar. OIV infektsiyasining birlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishda valeologik yondashuvlar va tibbiy madaniyatning roli. Zararli odatlar va uni oldini olishning valeologik tamoyillari